

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 31-iyulda tasdiqlangan “Korrupsiyaga qarshi kurashish milliy kengashi majlisining 2024-yil 26-iyundagi 15-son bayonnomasi va ilovalarida belgilangan vazifalarning ijrosini ta’minlash bo‘yicha chora-tadbirlar rejasi” (3-ilova, 16-band) va ushbu chora-tadbirlar ijrosini ta’minlash bo‘yicha universitet rektorining 2024-yil 13-avgustdagi 241-U-sonli buyrug‘iga asosan o‘tkaziladigan

“Yoshlar korrupsiyaga yo‘q deydi!” mavzusida o‘tkaziladigan  
“Eng yaxshi rasmlar” tanlovi

## **N I Z O M I**

### **1. Umumiy qoidalar**

1. Tanlov O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 31-iyulda tasdiqlangan “Korrupsiyaga qarshi kurashish milliy kengashi majlisining 2024-yil 26-iyundagi 15-son bayonnomasi va ilovalarida belgilangan vazifalarning ijrosini ta’minlash bo‘yicha chora-tadbirlar rejasi” (3-ilova, 16-band) va ushbu chora-tadbirlar ijrosini ta’minlash bo‘yicha universitet rektorining 2024-yil 13-avgustdagi 241-U-sonli buyrug‘i ijrosini ta’minlash maqsadida tashkil etiladi.

2. “Yoshlar korrupsiyaga yo‘q deydi!” mavzusida o‘tkaziladigan “Eng yaxshi rasmlar” tanlovida universitetda tahsil olayotgan talabalar o‘zlarining ijodiy ishlari bilan ishtirok etadilar. (Rasmlar maxsus ajratilgan auditoriyada chiziladi)

3. Tanlov **“Eng yaxshi rasm”** va **“Eng yaxshi hajviy rasm”** nominatsiyalari bo‘yicha o‘tkaziladi.

4. Tanlovni tashkil etish va o‘tkazish jarayoni universitet Yoshlar masalalari va ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha birinchi prorektor va Korrupsiyaga qarshi kurashish “Komplaens nazorat” tizimini boshqarish bo‘limi tomonidan amalga oshiriladi.

### **2. Tanlovning maqsadi va vazifalari**

5. Tanlovning maqsadi talabalar o‘rtasida korrupsion holatlarning oldini olish, ularda korrupsiyaga qarshi kurashish immunitetini shakllantirish, o‘z kelayotgan yoshlarning yomon illatlarga qarshi bo‘lgan sog‘lom fikrlarini rivojlantirish, ular ongida korrupsiyaning eng zararli oqibatlarini haqida tushunchalar uyg‘otish, “Yangi O‘zbekiston-yangicha dunyoqarash” tamoyili asosida yoshlarda huquqbuzarlik, korrupsiyaga qarshi toqatsizlik ruhini shakllantirish, qonunlarni hurmat qilishga, burch va majburiyatlarini vijdonan bajarishga o‘rgatish, talabalarning o‘z iqtidorlarini namoyon etishlari uchun shart-sharoit yaratish

hamda mustaqil va erkin fikrga ega iste'dodli talabalarni qo'llab-quvvatlashdan iborat.

6. Tanlovning vazifalari quyidagilardan iborat:

- Talabalar o'rtasida ijtimoiy-siyosiy vaziyatning barqarorligini ta'minlash, ularni turli buzg'unchi g'oyalar ta'siriga tushib qolishning oldini olish

- Talabalarni har tomonlama sog'lom va barkamol etib tarbiyalash, ularning o'z iqtidorlarini namoyish etishlari uchun shart-sharoitlar yaratish hamda mustaqil va erkin fikrga ega iste'dodli talabalarni har tomonlama rivojlantirish

- Talabalarda korrupsiyaga qarshi kurashish uchun mustahkam immunitetni shakllantirish

### 3. Tanlovni o'tkazish va baholash

7. Tanlovni o'tkazish bo'yicha Ishchi guruh va soha mutaxassisleri, professor-o'qituvchilar, bo'lim uslubchilaridan iborat tarkibda Hakamlar hay'ati tuziladi. Tanlov uchun talabalar tomonidan o'z o'quv qurollari bilan tashrif buyurishadi. Rasmlarni tasvirlashda barcha tasviriy san'at ashyolarida foydalanishi mumkin (qalam, rangli qalam, akvarel, guash, sangina, akril, moybo'yoq, ruchka, rangli ruchkalar va h.k).

8. Talabalar tomonidan tayyorlangan ijodiy ishlar Hakamlar hay'ati tomonidan tanlov shartlari va mezonlari asosida baholanadi. Zarur hollarda Hakamlar hay'ati tarkibiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilishi mumkin.

### 4. Tanlov shartlari va baholash mezonlari

9. Tanlovga taqdim etiladigan ijodiy ishlar quyidagi mezonlar bo'yicha baholanadi:

Baholash mezonlari		
1	Tanlov mavzusining mazmun-mohiyatining to'laqonli ochib berilganligi	10
2	O'ziga xoslik, obrazlilik, hissiylik, ifodaviylik darajasi	10
3	Kreativ yondashuv, mustaqil fikrlar va ijodkorlik xususiyatlarining ifoda etilganligi	10
4	Rasmlarda hayotiy misollardan keltirilganligi, mavzuga mos kompozitsiya orqali yoritilganligi	10
	Jami:	40

### 5. Tanlov g'oliblarini taqdirlash

10. Tanlovning "Eng yaxshi rasm" nominatsiyasi g'oliblari faxriy yorliqlar va 1-o'rin uchun ba'zaviy stipendiya miqdorining 2 barobari, 2-o'rin uchun ba'zaviy stipendiya miqdorining 1.5 barobari, 3-o'rin uchun ba'zaviy stipendiya miqdorining 1 barobari miqdorida pul mukofotlari bilan taqdirlanadilar.

11. Tanlovning "Eng yaxshi hajviy rasm" nominatsiyasi tanlovi g'oliblari faxriy yorliqlar va 1-o'rin uchun ba'zaviy stipendiya miqdorining 2 barobari, 2-o'rin uchun ba'zaviy stipendiya miqdorining 1.5 barobari, 3-o'rin uchun

ba'zaviy stipendiya miqdorining 1 barobari miqdorida pul mukofotlari bilan taqdirlanadilar.

12. Tanlovning "Eng yaxshi rasm" va "Eng yaxshi hajviy rasm" nominatsiyalari bo'yicha bitta g'olib taqdirlanishi mumkin emas.